

## Darsga yakun yasash:

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?*
- Mashg'ulotda nimalarni eslab qoldingiz?*
- Bugungi darsda sizga nima yangilik bo'ldi?*
- Qaysi topshiriqni bajarishga qiyonaldingiz?*

## 14-mavzu: [l] tovushi. Ll harfi yuzasidan amaliy topshiriqlar

### Dars maqsadi:

- [l] tovushining talaffuzi va Ll harfining bosma shakli yuzasidan amaliy topshiriqlar bajaradilar;
- so'zlardan [l] tovushining o'rnnini aniqlashni o'rganadilar;
- so`zni bo`g`inga bo`lib, undagi tovushlar sonini aniqlaydilar;

**Tayanch so'zlar:** gapni o`qish, boshqotirma, [l] tovushi ishtirokidagi so`zlardan tovushlar sonini aniqlash chizmasi.

**Didaktik materiallar:** ko`k va qizil rangli kichik kvadratlar, rasmi kartochkalar , kesma harflar, kuz tasviri.

### Darsning borishi:

#### I.Kirish qismi (5 daqiqa)

#### Faollashtirish mashqi:

Kalendar : O'quvchilardan bugungi kun sanasi so'raladi.

Sherigimni top mashqi: O'qituvchi doskaga 2 ustunga bo`g`inlarni yozadi 1-ustun **to, lo, no,** 2-ustun **lo, li, la** bo`g`inlar yozilgan kartochkalarni qo`yadi. O`quvchilardan birinchi ustundagi bo`g`inlarga ikkinchi ustundagi bo`g`inlardan mosini topib so`z hosil qilishlarini so`raydi.

#### Asosiy qism (40 daqiqa)

##### 1.Amaliy topshiriq bajarish: (5 daqiqa)

O`qituvchi kesma harflar yordamida o, n, i, t, l harflari bilan so`z hosil qilishni so`raydi.

*Kesma harflaringiz yoramida o`rgangan harflarimiz bilan so`zlar tuzing.*

*Tuzgan so`zlariningizni partadoshingizga o`qib bering.*

### **Amaliy topshiriqni muhokama qilish:**

- *Qanday so`zlar tuza oldingiz?*
- *Partadoshingiz qanday so`zlarni tuza oldi?*
- *Partadoshingiz tuzgan so`zlar orasidan qaysi birlari siz tuzgan so`zlar orasida yo`q?*

### **2.Mavzuni mustahkamlash: (10 daqiqa)**

O`qituvchi [l] tovushini so`zlar orasidan qanday aniqlashni tushuntiradi. Unli tovushlar to`sinqqa uchramasligi, cho`ziq aytilishi va unli tovushlarni chizmada shartli ravishda qizil rangda belgilanishini , undosh tovushlar talaffuzda to`sinqqa uchraydi, qisqa aytiladi uni shartli ravishda ko`k rang bilan berilishi aytiladi.

**Darslik 25-sahifa**

[l] tovushi. L l harfi      14-dars

Three horizontal boxes containing blue and red blocks representing the letter 'l'.

il	til	tin	ol-ti	o-i-la
ol	tol	nol	ol-tin	No-i-la

O-ta, a-na ol-ti-ta non. Lo-la, non-ni ol.  
Ona, ana ana .

Chizma asosida gaplar tuzing.

Ali, Lola    
Lola,     
Ali,    ?

Lola, lola, lolajon,  
Tog`lardagi gul-alvon.  
Iforlarin taratib,  
Bog`lariimda bo`l mehmon.

25

Doskada bir so`zni o`quvchilar bilan birga muhokama qiladi.

Laylak(rasmi)- bo`g`inga bo`linadi 2 bo`g`in, 1-bo`g`inda nechta tovush borligini aniqlaydi. 3 ta tovush. 2-bo`g`inda 3ta tovush. L harfining o`rni 1-va 4 -katakda ekanligi aniqlanadi. Shu kataknini ko`k rangga bo`yaladi.

### **Darslik bilan ishlash: (15 daqiqa)**

**Darslikda berilgan rasm asosida so`z tahlili chizmasi birgalikda bajariladi.**

Chizmaga mos so`zni ifodalayotgan rasm birlashtiriladi va tahlil qilinadi.

*Berilgan so'zlar o'qing.*

*Rasmlarni ifodalovchi so'zlar toping va gaplarni o'qing.*

*Berilgan chizma asosida gaplar tuzing.*

Har bir gap nechta so'zdan iborat ekanligi so'raladi. Gap tuzayotganda gap oxiridagi tinish belgilariga e'tibor qaratiladi. *1.Berilgan chizmaga qarab qanday gap tuzish mumkin?*

*2.Birinchi gapda qanday so'zlar berilgan?*

*3.Ikkinci gap nechta so'zdan iborat?*

*4.Uchinchi gap oxiriga qanday belgi qo'yilgan?*

***Gaplarni quyidagicha tuzish mumkin:***

1. *Ali, Lola ko'kka boqdilar.*
2. *Lola, ana laylaklar uchib ketmoqdalar.*
3. *Ali, laylaklar qayerga uchmoqdalar?*

***O'qituvchi uchun eslatma:***


Gaplarni o'qiganda gap hususiyatlari haqida eslating. Gap chizmasini chizib yozuvdagi gap bilan taqqoslang. Gap tuzishda berilgan gapdagi so'zlar o'rniغا rasmlarni ifodalovchi so'zlarni qo'yish kerakligini ayting.

Darslikda berilgan rasm asosida o'quvchilar bilan suhbat o'tkaziladi. Unda qanday fasl tasvirlangani, bolalar nimalar qilayotgani haqida so'raladi.

She'r o'qishni bilgan o'quvchiga o'qitiladi.


### **Daftар bilan ishlsh: (10 daqiqa)**

1. *Harflar yordamida so'zlar tuzib yozing.*



*Masalan: ota, ona, non, lola, il, ol, in, ot, it...*

*2. Berilgan bo`g`inlarni o`qing. Ikkita bo`g`inni qo`shib so`z hosil qiling. Uni ko`rsatkich bilan birlashtirib qo`ying.*



*3. Azizaga berilgan rasmlarni ifodalovchi so`zlarni orasidan [l] tovushi bo`lgan rasmlarni bo'yashga yordam bering.*

### **Darsga yakun yasash:**

- Qanday tovush bilan tanishdingiz?
- Mashg`ulotda nimalarni eslab qoldingiz?
- Amaliy mashqlardan qaysi birini siz o`zingiz mustaqil bajara oldingiz?